



## IQTISODIY MAKTABLARNING FOYDA TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR HAQIDAGI QARASHLARI

Turanov Murodullo

Termiz davlat universiteti Moliya va moliyavly texnologiyalar kafedrasini katta o'qituvchisi

email: [Murodullo11@mail.ru](mailto:Murodullo11@mail.ru)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 9

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss9/a15](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a15)

### ABSTRACT

Foyda va uning xususiyatlar bo'yicha turli iqtisodiy maktablar vakillarining ilmiy qarashlari aks ettirilib, ushbu fikrlar tadrijiy o'ranilgan, foyda iqtisodiy kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha xulosalar keltirilgan.

### KEYWORDS

*Foyda, iqtisodiy maktablar, bozor iqtisodiyoti, narx, renta, qiymat, qo'shilgan qiymat, sof mahsulot, kapital, xarajat, ishlab chiqarish.*

### Кириши (Introduction/Введение).

Iqtisodiy kategoriya sifatida esa mazmunan turlicha anglashtiladi. Foydaning mazmunini turlicha qabul qilish, uning oddiy va murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilishni yuzaga chiqaradi. Foyda bozor sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyat davrlari oralig'idagi uzlusiz asosiy marrasi hisoblanadi. Ushbu jihatning o'zi tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatida asosiy omilni yuzaga chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Klassik siyosiy iqtisodchi olim A.Smitning fikricha, "... kapitalning qoplanishi va renta to'langandan keyin qolgan barcha ortiqcha mablag' foyda deyiladi" [1].

Bu ta'rif tushunarli bo'lsada foydaning mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy davr holatidan kelib chiqib, tovarlar narxining tarkibiy qismlari nisbatan ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Menkyu N.G. "Makroekonomika" nomli darsligida foydaning ta'rifini quyidagicha beradi: "Foyda - bu xarajatlardan chegirilib, ishlab chiqarish xarajatlari qoplanguandan so'ng firma egasining ixtiyorida qolgan tushundir" [2].

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda tadqiqot metodolarining qiyosi va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### Olingan natijalar (Results/Результаты).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida zamonaviy iqtisodiy nuqtai nazaridan uning tavsliflari ishlab chiqildi.

### Tahlillar (Analysis/Анализ).

Qadimgi hind iqtisodiy tafakkuri haqidagi Arxashastra traktatida boylikning mehnat orqali yaratilishi nizomi va savdo foydasining savdogar va davlat o'tasida taqsimlanish jarayonini boshqarish zaruriyati haqida to'xtolib, foydani taqsimlanish jarayoni davlatnomidan tartibga solinishini targ'ib qilingan. Foydaning shakllanish jarayoniga nisbatan taqsimlanish jarayoniga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek foydaning shakllanishi va uning mohiyati haqidagi dastlabki iqtisodiy qarashlar qadimgi yunon olimlari Ksenofont, Aflatun davridan boshlanib, ular asarlarda aynan foyda haqida tizimli o'rganilmagan. Jumladan Ksenofont pul yordamida tovar muomalasi amalga oshirilishi va boylik jamg'arish uchun insonlar tomonidan kashf etilganligini ta'kidlaydi. Pulni boylik tarzida jamg'arishga qarshi bo'llib, ayniqsa sudxo'rlikni keskin tanqid qilishgan.

Aflatun narx haqida fikr yuritib, uni davlat boshqarishi kerakligi va uning natijasida foyda olinishini ta'kidlaydi. Iqtisodiy tafakkur taraqiyotida Arastu o'z qarashlarida o'rganilgan fikrlami tizimlashtirib, iqtisodiyot va xrematistika tushunchalariga mezonlar asosida yondoshib, foyda haqida mulohazalarni bosqichma bosqich shakllanishiga hissasini qo'shibi. "...ulaming foydani to'plash vositasni sifatida qo'llanilishi, ya'ni sudxo'rlik kapitali sifatida, - xrematistikaga sohasiga tegishlidir." [3] Uning iqtisodiyot va xrematistika haqidagi kontsepsiyasidan shuni xulosa qilish mumkinki, foydaning shakllanishi aynan xrematistika faoliyat bilan bog'liq. Xrematistikani savdo orqali barqarorlik holatini paydo qilish ekanligi, bunda mulkka, boylikka egalik qilishlik ekanligini ta'kidlaydi. "Boylig ortirish san'atida maqsadga erishishda hech qachon chegara bo'lmaydi, balki bu yerda maqsad boylik va pulga ega bo'lischdir." [4] Shuningdek savdo foydasini ko'prtirilganligi, sudxo'rlik kapitalini pulga egalik qilishning notabiyy yo'li ekanligii izohlaydi. Arastu oddiy tovar muomalasida va pulning kapital sifatida muomalasida kapitalni pulning harakati natijasida ko'payishi ta'kidlaydi. Qadimgi yunon olimlarining iqtisodiy qarashlarida stixiali ravishda savdo foydasi tushunchasi keng o'rganilganligini ko'rish mumkin. Demak mazmunan qadimgi yunon olimlari jamiyatda jamg'arilgan boylik va egalik qiligan

### Ayrim iqtisodiy maktablarning foyda tushunchasiga yondashuvlari haqidagi qarashlari

Iqtisodiy maktablari	Mazmuni	Nazariyaning namoyondalari
Merkantilizm	Foydani shakllantirishda tashqi savdoni afzal bilishgan	T.Mann
Fiziokratlar	Foydani maxsus ishlab chiqarish kuchi-er natijasi sifatida tasvirlashgan	F.Kene
Klassik siyosiy iqtisodchilar	Foydani shakllanishiga bilan bog'liq xususiyatlarini qiymatni mehnat yaratishi asosida o'rgandi. Foydani qiyamat va xarajatlardan orqali tushuntiradi.	A.Smit D.Rikardo
Marksizm	Foydani shakllantirishiga asosiy sabab, ishchilarning mehnati qaratib, qo'shilgan qiyamat foydani o'zgartirilgan shakli sifatida o'rganiladi.	K.Marks
Marjinalistlar	Bozorda narxlarini va monopol foydani shakllantirishning muammolari o'rganilgan.	S.Jevons, K.Menger, Beni-Baverk
Neoklassik iqtisodchilar	Foydani shakllantirishning ko'p miqdoriy parametrlarini aniqlashtirishni tadqiq qilgan. foyda tadbirkorlik faoliyatining natijasi ekanligini asosladi.	A.Marshall Y.A.Shumpeter
Keynschilik	investitsiya, bandlik, iste'mol va foyda o'tasidagi mutanosiblik ta'minlash orqali iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal siyosatga ustuvorlik beradi	J.Keyns
Institusionalizm	Foyda olish asosiy maqsad sifatida e'tirof etilmaydi	T.Veblen J.Gelbreyt

mulk, shuningdek pul mablag'larini foyda sifatida talqin qilishgan. Ushbu qarashlar esa o'rta asrlarda faoliyat yuritgan iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilishi ilmiy asoslangan g'oyaarning rivojlanishga olib keldi.

Bozor iqtisodiyotining dastlabki nazariy kontseptsiyasi- tarixiy iqtisodiy qarashlar nuqtai-nazaridan foyda nazariyasiga tamoyillari rivojlanishining dastlabki bosqichlari merkantilistlar iqtisodiy tahlillari bilan bog'liq. Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyasiga shubhasiz yirik salmoqdagi nazriy hissasini qo'shish bilan birlgilikda, bir qator iqtisodiy kategoriyalarni mazmunini ochib ham berishgan. Merkantilistlar T.Mann, D.Yum, J.Kolberlarning nazariy yondashuvlarida boylik-foydani shakllanish manbalarini tadqiq qilish asosiy o'rinni egalladi. Merkantilistlar ichki va tashqi savdo faoliyatiga keng e'tibor qaratib dastlab foyda ayirboshlashdan paydo bo'lismeni ta'kidlashgan. Lekin ular foydani shakllanirishda tashqi savdoni afzal bilishgan. "Ularning fikricha, boylikni ko'paytirishning asosiy manbasi bo'lib, tashqi savdo hisoblanadi. "Bizning boylik va pulimizni ko'paytirishning odatiy vositasi, - ta'kidlaydi Men, - tashqi savdo hisoblanadi." [4]

Boshlang'ich va so'ngi merkantilizm namoyondalari foydani keng shakllanirish omillari sifati yuqori narxlar belgilash, importni chegaralash, oltin va kumushni mamlakatdan chiqarmaslik, arzon tovarlar vositasida bozorlarni egallash, aktiv savdo balansi sharoitida tovarlar importga ruxsat berish, maqbul savdo bitimlari uchungina oltin va kumushni mamlakatdan olib chiqishga ruxsat berishlarni keltirishadi. Ularning ta'kidlashicha, albatta ayirboshlash jarayoni foydani paydo bo'lismeni boshlang'ich nuqtasi bo'lib, shundan so'ng uni o'zlashtirish mumkin. Ammo foydaning paydo bo'lismenin haqidagi savolni qaysi bosqichda o'zlashtirilishi haqidagi savol bilan aralashtirmaslik zarur. Merkantilistlar fikricha foyda ayirboshlash bosqichida o'zlashtirishini ta'kidlashib, foydaning tabiatini va haqiqiy manbaidan uzoqlashib, ular foyda ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lismeni bilishmag'an. Shunga mos ravishda ularning ilmiy qarashlariga asosan tashqi savdo foyda oqimini ta'minlash maqsadida davlatning faol aralashuvini qo'llab quvvatlashgan. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish muminki, merkantilistlar asosan tashqi savdo orqali foydani ko'paytirish natijasida iqtisodiyotni o'sishini ta'minlash, milliy boylikni oshirishga e'tibor qaratishgan. Foyda nazariyasining rivojlanishi fiziokratlar iqtisodiy maktabining namoyondalari – F.Kene, J.Tyurgolar faoliyatini bilan ham bog'liq. Ulaming fikricha, iqtisodiyotning shakllanishi va faoliyatining asosini tabiiy tartib belgilaydi. Fiziokratlar asosan foydani maxsus ishlab chiqarish kuchi-er natijasi sifatida tasvirlashgan. Ular ziroat ma'sulotlarini yetishtirishning miqdoriy o'sishini qiymat o'sishi bilan aralashtirib yuborishadi. Shuning uchun ular noto'g'ri ravishda ishlab chiqarish sohasidagi foydani qishloq xo'jaligi bilan chegaralab va mohiyatan iste'mol qiymati o'sishini qiymat o'sishi bilan almashtirishdi. Fiziokratlar maktabining namoyondalarining kontseptsiyasiga ko'ra davlatning iqtisodiy siyosati qishloq xo'jaligi munosabatlari orqali amalga oshirilish zarurligi va foydani shakllanirishda yagona manbasi yer ekanligini qayd etishadi. Foydani shakllanishini F.Kene "sof mahsulot" tushunchasi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Tabiat ishtirokida yer egasining mehnati foyda - "sof mahsulot"ni yaratishini ta'kidlaydi. Shakllangan foyda yer egalarining ilgari yerga qilgan harajatlar uchun mukofot ekanligini qayd etadi. J.Tyurgo foyda nafaqat qishloq xo'jaligida balki sanoat, savdoda ham shakllanishini ta'kidlagan.

Sanoat va sadoda mehnat mahsulordi emasligi, masalan savdoda mehnat materiyaning shaklini o'zgartirishi, savdoda esa tovarlar harakati sodir bo'lishi, eng asosiyi yangi materiya hosil bo'lmashagini ta'kilashadi. Sanoatda "sof mahsulot" hosil bo'lmaydi, sanoat mahsuloti qiymati ishlab chiqarish xarajatlariga teng ekanligi, ular foydani xodimlar ishshaqi ko'rinishida olishadi. Savdo foydasini hisoblash va aldov natijasida sifatda ko'rishadi. Shuning uchun foydani shakllanishini yana qishloq xo'jaligi tizimi nuqtai-nazari orqali dalolataydi: "foyda –tabiat inomi emas, u foizga o'xshash bo'lib, uning paydo bo'lishi yer rentasidan "kelib chiqadi"." [4]

Klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakillari A.Smit va D.Rikardolar foydaning mohiyatini jiddiy tadqiq etishdi. Dastlab foydani tadqiq etishni sanoat ishlab chiqarishda, so'ngra tadqiqot sohlarini kengaytirib noishlab chiqarish sohalari bo'yicha keng o'rganishdi.

A.Smit foydani iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat qiymati nazariysi bo'yicha ifoda etdi. Foydani shakllanishi bilan bog'liq xususiyatlarini qiymatni mehnat yaratishi asosida o'rgandi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini nazariysi bo'yicha emas balki, mehnat orqali tovarlarning qiymatini aniqlash bilan birga, A. Smit daromadlar yig'indisi sifatida qiymati iqtisodiy kategoriyasini shakllantirdi.

Bozor iqtisodiyotining dastlabki nazariy kontseptsiyasi- tarixiy iqtisodiy qarashlar nuqtai-nazaridan foyda nazariyasiga tamoyillari rivojlanishining dastlabki bosqichlari merkantilistlar iqtisodiy tahlillari bilan bog'liq. Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyasiga shubhasiz yirik salmoqdagi nazriy hissasini qo'shish bilan birlgilikda, bir qator iqtisodiy

kategoriyalarni mazmunini ochib ham berishgan. Merkantilistlar T.Mann, D.Yum, J.Kolberlarning nazariy yondashuvlarida boylik-foydani shakllanish manbalarini tadqiq qilish asosiy o'rinni egalladi. Merkantilistlar ichki va tashqi savdo faoliyatiga keng e'tibor qaratib dastlab foyda ayirboshlashdan paydo bo'lismeni ta'kidlashgan. Lekin ular foydani shakllanirishda tashqi savdoni afzal bilishgan. "Ularning fikricha, boylikni ko'paytirishning asosiy manbasi bo'lib, tashqi savdo hisoblanadi. "Bizning boylik va pulimizni ko'paytirishning odatiy vositasi, - ta'kidlaydi Men, - tashqi savdo hisoblanadi." [4]

Boshlang'ich va so'ngi merkantilizm namoyondalari foydani keng shakllanirish omillari sifati yuqori narxlar belgilash, importni chegaralash, oltin va kumushni mamlakatdan chiqarmaslik, arzon tovarlar vositasida bozorlarni egallash, aktiv savdo balansi sharoitida tovarlar importga ruxsat berish, maqbul savdo bitimlari uchungina oltin va kumushni mamlakatdan olib chiqishga ruxsat berishlarni keltirishadi. Ularning ta'kidlashicha, albatta ayirboshlash jarayoni foydani paydo bo'lismeni boshlang'ich nuqtasi bo'lib, shundan so'ng uni o'zlashtirish mumkin. Ammo foydaning paydo bo'lismenin haqidagi savolni qaysi bosqichda o'zlashtirilishi haqidagi savol bilan aralashtirmaslik zarur. Merkantilistlar fikricha foyda ayirboshlash bosqichida o'zlashtirilishini ta'kidlashib, foydaning tabiatini va haqiqiy manbaidan uzoqlashib, ular foyda ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lismeni bilishmag'an. Shunga mos ravishda ulaming ilmiy qarashlariga asosan tashqi savdo foyda oqimini ta'minlash maqsadida davlatning faol aralashuvini qo'llab quvvatlashgan. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish muminki, merkantilistlar asosan tashqi savdo orqali foydani ko'paytirish natijasida iqtisodiyotni o'sishini ta'minlash, milliy boylikni oshirishga e'tibor qaratishgan.

Foyda nazariyasining rivojlanishi fiziokratlar iqtisodiy maktabining namoyondalari – F.Kene, J.Tyurgolar faoliyatini bilan ham bog'liq. Ulaming fikricha, iqtisodiyotning shakllanishi va faoliyatining asosini tabiiy tartib belgilaydi. Fiziokratlar asosan foydani maxsus ishlab chiqarish kuchi-er natijasi sifatida tasvirlashgan. Ular ziroat ma'sulotlarini yetishtirishning miqdoriy o'sishini qiymat o'sishi bilan aralashtirib yuborishadi. Shuning uchun ular noto'g'ri ravishda ishlab chiqarish sohasidagi foydani qishloq xo'jaligi bilan chegaralab va mohiyatan iste'mol qiymati o'sishini qiymat o'sishi bilan almashtirishdi. Fiziokratlar maktabining namoyondalarining kontseptsiyasiga ko'ra davlatning iqtisodiy siyosati qishloq xo'jaligi munosabatlari orqali amalga oshirilish zarurligi va foydani shakllanirishda yagona manbasi yer ekanligini qayd etishadi. Foydani shakllanishini F.Kene "sof mahsulot" tushunchasi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Tabiat ishtirokida yer egasining mehnati foyda - "sof mahsulot"ni yaratishini ta'kidlaydi. Shakllangan foyda yer egalarining ilgari yerga qilgan harajatlar uchun mukofot ekanligini qayd etadi. J.Tyurgo foyda nafaqat qishloq xo'jaligida balki sanoat, savdoda ham shakllanishini ta'kidlagan.

Sanoat va sadoda mehnat mahsulordi emasligi, masalan savdoda mehnat materiyaning shaklini o'zgartirishi, savdoda esa tovarlar harakati sodir bo'lishi, eng asosiyi yangi materiya hosil bo'lmashagini ta'kilashadi. Sanoatda "sof mahsulot" hosil bo'lmaydi, sanoat mahsuloti qiymati ishlab chiqarish xarajatlariga teng ekanligi, ular foydani xodimlar ishhaqi ko'rinishida olishadi. Savdo foydasini hisoblash va aldov natijasida sifatda ko'rishadi. Shuning uchun foydani shakllanishini yana qishloq xo'jaligi tizimi nuqtai-nazari orqali dalolataydi: "foyda –tabiat inomi emas, u foizga o'xshash bo'lib, uning paydo bo'lishi yer rentasidan "kelib chiqadi"." [4]

Klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakillari A.Smit va D.Rikardolar foydaning mohiyatini jiddiy tadqiq etishdi. Dastlab foydani tadqiq etishni sanoat ishlab chiqarishda, so'ngra tadqiqot sohlarini kengaytirib noishlab chiqarish sohalari bo'yicha keng o'rganishdi.

A. Smit foydani iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat qiymati nazariysi bo'yicha ifoda etdi. Foydani shakllanishi bilan bog'liq xususiyatlarini qiymatni mehnat yaratishi asosida o'rgandi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini nazariysi bo'yicha emas balki, mehnat orqali tovarlarning qiymatini aniqlash bilan birga, A. Smit daromadlar yig'indisi sifatida qiymati iqtisodiy kategoriyasini shakllantirdi.

Uni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Q = W + P + R \quad (W - \text{ish haqi} + P - \text{foyda} + R - \text{renta}). [4]$$

Yuqoridagi tenglamadan shuni xulosa qilsa bo'ladiki, klassik siyosiy iqtisod namoyondalari tomonidan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasida foydani shakllanirish modeli yaratildi.

A.Smit narx shakllanishiga doir muammolar bo'yicha ikki xil kontseptsiyani ilgari surdi. Ushbu holatlar orqali foydani shakllanishiga ham ikki xil yondashuvni ko'rishimiz mumkin. "...bu ishchilar mehnati mahsulidan chegirma-mehnat qiymati nazariyasiga ko'ra va shu bilan

birga, kapital uchun haq to'lash va narxning tarkibiy qismi –ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasiga muvofiq.”[5]

A.Smit nazariyasiga ko'ra foyda ishchilaming mehnati mahsulidan sarmayodoming manfaati uchun chegirmahis oblanadi.

D.Rikardo foyda nazariyasini quyidagi qoidalargacha qisqartirdi[6]:

- 1) barcha tovarlar ish vaqtida kelib chiqib belgilangan qiymat bo'yicha sotiladi;
- 2) xarajatlar tovar qiymatidan chegiriladi;
- 3) foyda, tovarning qiymati va xarajatlar o'rtaсидаги farq bo'lgan, - qoldiq.

Bu kabi foydani shakllantirishning asosiy xususiyatlari keyingi tadqiqotlarga asos qilinib, foyda nazariyasini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

Markscha maktabning foyda nazariyasini siyosiylashtirish darajasi yuqori bo'lganligi sababli tanqidga uchragan bo'lsada, tarixan foyda nazariyasining rivojlanish taraqqiyotiga K.Marks va uning izdoshlari ilmiy izlanishlari ham asosiy turtki bo'ldi. K.Markning iqtisodiy ta'limotiga ko'ra foydani shakllantirishida, A.Smit va D.Rikardoning mehnatning qiymatini nazariyasini keng tadqiq qilgan holda, qiyma qonuniiga asosan foydaning shakllantirishiga asosiy sabab, ishchilaming mehnati qaraladi. Aynan mehnat kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha qiymat shakllantiradi. K.Marksning iqtisodiy nazariyasida qo'shilgan qiymat foydaning o'zgartirilgan shakli sifatida qaraladi.

Agar foydani R deb belgilasak,  $W = c + v + m = k + m$  formula,  $W = k + p$  formulasiga yoki tovarning qiymati = ishlab chiqarish xarajatlari + foyda tenglamasiga aylanadi.

Bundan ko'rinadik, foyda, yuqorida aks ettirilgan qo'shilgan qiymat bilan bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. K.Marks foydaning asosini qo'shilgan qiymat tashkil qilib, ishlab chiqarishga kapitalining sarflanishi shakli natijasida ajratib oladi. Shu bilan birga ish kuchi yangi qiymat shakllantirishi hisobiga foyda shakllanadi. Ammo foyda-bu ortiqcha qiyamat emas, yuqorida qayd etganimizdek, ortiqcha qiyamatning almashgan shakli bo'lib, ortiqcha qiyamatning bir qismi xarajatlarni shaklida - qarz, ijara, soliq va ish haqiga ustamalarga transformatsiya qilinadi.

Foyda nazariyasining salmoqli rivojlanishiga marjinalistlar maktabining vakillari S.Jevons, K.Menger, L.Valrasa, Bem-Baverk, J.Klarklarning tadqiqotlari ulkan hiss qo'shishdi. Jumladan ularning iqtisodiy qarashlarining asosini chegaraviy foydalilik nazariyasi tashkil etib, ushbu nazariya inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Chunki marjinalistlar o'z ilmiy izlanishlarda foydani shakllantirishning nafaqat mikroiqtisodiy tahlillariga keng e'tibor qaratishdi, balki foydani mazmunini ruxiy izohlashga ham harakat qildi[7]. Natijada foydani maksimallashtirishning bir qator omillar tizimini aniqlashdi. Marjinalistlarning foyda nazariyasidagi ta'qiqotlar bozorda narxlami va monopol foydani shakllantirishning muammolariga qaratilgan.

Neoklassik iqtisodchilar maktabi vakillari foydaning shakllantirishning turli omillar orqali aniqlashtirishga xizmat qildi. Jumladan P.Samuelson foydani quyidagi beshta nuqtai nazarlardan kelib chiqib talqin qiladi[8]:

- Foyda, ishlab chiqrish omillarini egalari tomonidan taqdirm qilinish natijasidan muqarrar olinadigan daromad;
- Foyda, tadbirkorlik faoliyati va texnik taomillashtirishlar joriy etilishi uchun mukofot;
- Foyda, ko'riliши mumkin bo'lgan zararlar-risk va istiqboldagi noaniklilar natijasida shakllanadi;
- Foyda, monopol mavqeい xolatidan kelib chiqadi;
- Foyda, moddiy rag'batalantiruvchi daromad sifatida emas, balki qiyatni o'lchanadigan va soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan ortiqcha daromad sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu nazariyalar ichida tadbirkorlik foydasi nazariysi, innovatsion foyda nazariysi va boshqa nazariyalar muhim o'rinni tutadi. Y.A.Shumpeterning tadqiqotlari natijasida innovatsiya jarayonlarini talab etuvchi tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish omili sifatida qaralди va shu vaqtadan boshlab foyda tadbirkor faoliyatining natijasi ekanligini ilmiy

## References:

1. А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. Глава ВИ. Осоставных частях сены товаров. М о с к в а: Издательство социально-экономической литературы, 1962. С.54
2. Менкю Н.Г. Макроэкономика. Пер. с англ. - М.: Изд-во МГУ, 1994.- С.99
3. Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2009.— с.54
4. Бартенев С. А. История экономических учений: учебник- 22е изд., перераб. и доп. — М.: Магистр: ИНФРАМ, 2013.— с.37
5. Павлова И. П. и др. История экономических учений: Учеб.пособие. Изд. 3-е/ СПбГУАП. СПб.,2000. с.35-36
6. Черний А.А., Батищева Н.Н. Прибыль: от прошлого к настоящему.Вопросы экономики и управления. Международный научный журнал. № 4.1(06.1) / 2016. С 45
7. Под редакцией Н.А.Саголова. Курс политической экономии. Том 1. М: Издательство экономической литературы.-1963. с.334.

asosladi. “... mohiyatan tadbirkorlik foydasi –bu yangi kombinatsiyalami amalga oshirish natijasidir.”[9]

Keyns foyda manbaralarining muammolari bilan shug'ullanmagan bo'lsada[10], davlatning faoliyatiga muhim ahamiyat qaratgan makroiqtisodiy modelida iqtisodiy barqarorlik mutanosibliklarni ta'minlash muammolarni “samarali talab” mavqeidan investitsiya, bandlik, iste'mol va foyda o'rtaсидаги mutanosiblik ta'minlash orqali iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal siyosatga ustuvorlik beradi.Tadqiqotlari davomida yetarli bo'lmagan “jami talab” sabablar sifatida foizlarning yuqori darajasi tufayli kapitalga nisbatan yugori bo'lmagan foyda me'yorigi keltiradi. “Tadbirkorning daromadi maksimal bo'lganda bandlik darajasi yalpi talab funksiyasiga bog'liq bo'lib, o'z navbatida, u iste'mol va investitsiyalar o'rtaсидаги munosabatlarning turli xil variantlari bilan tushum istiqbollarini halaydi.”[10]

Institutsionalizm iqtisodiy maktabining namoyondalaridan J.Gelbreyt neoklassik iqtisodiy maktab tarafdarlarining g'oyalalarini inkor etgan.Jumladan “Kapitalistik firmaning maqsadi foyda olish edi. Neoklassik o'quv kurslarida hanuzgacha foydaga alohida e'tibor qaratiladi, va shunday qilib qolgan barcha maqsadlar deyarli to'liq e'tirof etilmaydi” [11]. Uning ta'kidlashicha firmalarining faoliyatini yuritishda markaziy fikrlovchisi alohida shaxs emas, balki mutaxassislar guruhi tashkil etib ular texnotuzilmani yuzaga keltiradi.Biroq bunda foydani maksimallashtirish texnotuzilmaning asosiy maqsadi emas. Ma'lum bir foyda darajasiga erishilgandan so'ng texnotuzilmaning a'zolari o'sish jarayonining o'zidan ko'proq naf ko'rishadi. Mulkni boshqaruva jarayonidan ajaratish daromadni ko'paytirish to'g'risidagi qoidalarni to'liq qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

## Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quyidagi savollar paydo bo'ldi va ularga quyidagicha javoblar shakllandi: Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida qanday xususiyatlarga ega ? Uning tadrijiy rivojlanishi natijasida unga nisbatan qanday xususiyatlar yuzaga keldi? Iqtisodiy maktablarining qarashlarida qanday vogeliklar mujassam bo'ldi? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

## Xulos (Conclusions/Заключения).

Foydaning iqtisodiy mohiyatining ko'rib chiqar ekanmiz, zamonaviy iqtisodiy nuqtai nazaridan uning quyidagi tafsiflarini qayd etishni muhim hisobladi:

✓ foyda aniq bir faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorning daromad shaklini ifodalaydi.Bu foydani ifodalashning oddiy shakli bo'lib, uning mazmunini to'liq ochib bermaydi.Negaki ayrim sohalardagi faoliyat natijalari foyda olish bilan bog'liq bo'lmaydi.

✓ Foyda tadbirkorning daromad shakli bo'lib, tijorat muvaffaqiyatiga erishish maqsadida qo'yilgan kapitalni anglatadi.Chunki foyda kategoriysi ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan-kapital kategoriysi bilan bog'liq.

✓ Foyda tadbirkorlikka yo'naltirilgan kapitali bo'yicha kafolatlangan daromadini anglatmaydi.Chunki foyda tadbirkorlik faoliyatidagi riskka nisbatan to'lovni ham anglatishi mumkin.Ya'ni tadbirkorlik faoliyati riski va foyda darajasi o'zaro mutanosis bog'likka ega hisoblanadi.

✓ Foyda tadbirkorlik faoliyatida olingan jami daromadni aks ettirmaydi, balki ushbu faoliyatni amalga oshirish xarajatlarni chegirilishi hisobiga qolgan qismimi tafsiflaydi.Kengroq ma'noda foyda miqdori ko'rinishda qoldiq ko'rakichni aks ettirib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida jami daromad va jami xarajatlarni farqini anglatadi.

✓ Foyda pul shaklidagi qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi.Foydani bu kabi tafsiflanishi umumi qiyatni aks etiruvchi asosiy ko'rsatkichlar-quyilgan kapital, qilingan xarajatlarni, olingan foyda va boshqalarni hisobga olish amaliyoti bilan bog'liq.

- 
8. Самуэлсон Пол А.Экономика:Учебник перевод с англ.- Севастопол, изд “Ахтиар”, 1995 г стр.287-291.
  9. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия/. - М.: Эксмо,2008. — стр. 234.
  10. Дж. М. Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. / перевод с английского проф. Н.Н. Любимова. Вступительная статья. проф. И.Г.Блюмина. М: Государственное издательство “Иностранной литературы”, - 1948.- стр.XVII.
  11. Гелбрейт Дж. Экономические теории и цели общества. Перевод В. В. Зотова, В. А. Кирова, Т. Л. Клячко -. Воспроизведено по изданию: М.:Прогресс, 1976. стр 145...